

**RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ YIG'IMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI**

*Toshkent Kimyo xalqaro universiteti
Namangan filiali talabasi
Sotivoldiyeva Barno Odiljon qizi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada raqamli iqtisodiyotni jadal rivojlanishi sharoitida soliq tizimini takomillashtirishning zaruriyati, hamda O'zbekiston Respublikasining amaldagi soliq tizimi, raqamli faoliyat subyektlarining huquqiy maqomi, xorijiy mamlakatlar tajribasi hamda raqamli soliq mexanizmlarini raqamli iqtisodiyot talablariga moslashtirish takliflari bildirilgan.

Kalit so'zlar: Raqamli iqtisodiyot, soliq tizimi, raqamli faoliyat subyektlari, bloggerlar, soliq siyosati, elektron deklaratsiya.

Аннотация: В данной статье рассматривается необходимость совершенствования налоговой системы в условиях стремительного развития цифровой экономики а также анализируется действующая налоговая система Республики Узбекистан, правовой статус субъектов цифровой деятельности, изучается зарубежный опыт и выдвигаются предложения по адаптации налоговых механизмов к требованиям цифровой экономики.

Ключевые слова: Цифровая экономика, налоговая система, субъекты цифровой деятельности, блогеры, налоговая политика, электронная декларация.

Annotation. This article examines the need to improve the tax system in the context of the rapid development of the digital economy. I also analyzes the current tax system of the Republic of Uzbekistan, the legal status of digital activity entities, reviews the experience of foreign countries, and proposes recommendations for adapting tax mechanisms to the requirements of the digital economy.

Keywords: Digital economy, tax system, digital activity entities, bloggers, tax policy, electronic declaration.

KIRISH:

Raqamli iqtisodiyot bugungi kunda dunyo miqyosida iqtisodiy munosabatlarni shaklini tubdan o'zgartirmoqda. Birinchi marta 1995-yil amerikalik dasturchi Nikolas Negroponte "Raqamli iqtisodiyot" termini amaliyotga kiritgan [1]. Raqamli iqtisodiyot – bu raqamli texnologiyalarga asoslangan ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatishdagi raqamli ma'lumotlar bo'lib, katta xajmdagi ma'lumotlarni saqlash yordamida ishlab chiqarish, yetkazib berish, onlayn xizmatlar, elektron to'lovlar, internet savdo va boshqa raqamli texnologiyalarni rivojlanishi bilan bog'liq faoliyatdir. O'zbekistonda ham raqamli iqtisodiyotga o'tish bo'yicha muhim islohotlar amalga oshirilmoqda.

“Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasi, elektron hukumat tizimining kengaytirilishi, soliq sohasida “E-Soliq”, “Soliq mobil ilovasi” kabi tizimlarning joriy etilishi bunga misol bo‘la oladi. Mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoev ta’kidlaganidek “Taraqqiyotga erishish uchun raqamli bilimlar va zamonaviy axborot texnologiyalarini egallashimiz zarurva shart. Bu bizga yuksalishni eng qisqa yo‘lidan borish imkoniyatini beradi [2]. Shu bilan birga, raqamli faoliyatdan olinadigan daromadlarni soliqqa tortish, ularni qonuniy asosda hisobga olish va nazorat qilish masalalari hali ham dolarb hisoblanadi.

Adabiyotlar sharxi: Xorijlik olimlar va mahalliy olimlarimiz o‘z maqola va ilmiy ishlarida soliq tizimi faoliyatida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish masalalari haqida o‘z taklif va xulosalarini berishgan. Mahalliy olimlarimiz : M.Abduxapizov, D.Razzoqova, J.Mashrapov, N.Jo‘rayev, Sh.Abdulhayeva, N.Toxirovichu, U.Berdiyeva, A. Ma‘rupov va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari soliq tizimida raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish usullarini ishlab chiqishga bag‘ishlangan. Muammoning dolzarbligi va rivojlanishdagi ayrim muammolar esa tadqiqot olib borish va maqolani mavzusini aniqlashga imkon beradi.

Tahlil va natijalar muhokamsi: Raqamli iqtisodiyot va soliq tizimining bog‘liqligi. Har bir davlat uchun soliq tizimini shakllantirish, iqtisodiyotni yanada rivojlantirishning asosidir. Soliqlar byujet daromadining asosiy qismini tashkil etganligi sababli iqtisodiy mexanizm sifatida ta’riflanadi.

Raqamli iqtisodiyot va soliq tizimining o‘zaro bog‘liqligi: Raqamli iqtisodiyotning rivojlanishi bilan birga soliqqa tortish jarayonlari ham yangi yondashuvlarni talab qiladi. Chunkiraqamli faoliyatning o‘ziga xos jihati-daromadlarni asosan onlayn manbalardan shakllanishidir. Masalan, bloggerlar kontent yaratuvchilar, dastur ishlab chiqaruvchilar, onlayn kurs tashkilotchilari o‘z daromadlarini xalqaro platformalar orqali oladi.

An’anaviy soliq tizimida bundaay daromadlar asosan yurudik shaxslar yoki rasmiy ro‘yhatdan o‘tgan tadbirkorlar orqali soliqqa tortiladi. Ammo raqamli faoliyat bilan shug‘ullanayotgan ko‘plab shaxslar yakka tartibda ishlaydi va ularning va ularning daromadi aniq nazorat qilinmaydi. Shu sababli soliq organlari raqamli iqtisodiyotdan tushadigan real daromadni aniqlash murakkab jarayon hisoblanadi.

Birlashgan Millatlar Tashkilotining 2023-yilgi “Digital Economy Reporting” hisobida qayd etilishicha , dunyo yalpi ichki mahsulotining 15 foizini raqamli faoliyatdan shakllanmoqda. Suning uchun, soliq tizimining raqamli iqtisodiyot talablariga moslashuvi har bir mamlakat uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston soliq tizimida raqamli faoliyat subyektlarini soliqqa tortish amaliyoti.

“Soliq siyosati bu- iqtisodiyotni yuragi. Uni oqilona yurutish davlat barqarorligining kafolatidir” [3]. O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksida hozircha

“raqamli faoliyat subyektlari” degan alohida tushuncha kiritilmagan. Shu sababli bloggerlar, onlayn xizmat ko’rsatuvchilar yoki ijtimoiy tarmoqlar orqali daromad oluvchi shaxslar umumiy tartibda, ya’ni jismoniy shaxs sifatida soliq to’laydi.

Ammo, amaliyotda ularni daromadini aniqlash qiyin. Masalan, Youtube, TikTok yoki Instagram orqali reklama joylashtirib yoki homiylik asosida pul topadigan shaxslar to’g’rida-to’g’ri xorijiy manbalardan to’lov oladi. Ushbu to’lovlar ko’pincha bank nazoratisiz o’tadi, bu esa soliqqa tortish jarayonini murakkablashtiradi.

Shu sababli mutaxassislar tomonidan Soliq kodeksida “raqamli faoliyat subyekti” tushunchasini kiritish taklif etilmoqda. Bunda:

- Bloggerlik faoliyati;
- Kontent yaratish va onlayn xizmatlar ko’rsatish;
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama joylashtirish;
- Mobil ilova va dasturiy mahsulotlardan daromad olish kabi faoliyat turlari aniq belgilanishi zarur.

Bu esa soliq organlarida ushbu toifadagi shaxslarni nazorat qilish daromadlarni hujjatlashtirish va shaffof soliqqa tortish imkonini beradi.

Xorijiy tajriba va uni O’zbekiston sharoitiga moslashtirish yo’llari.

Raqaml iqtisodiyotdan soliqlar undirish masalasida ko’plab davlatlar tajribasi diqqatga sazovor.

Hindiston. 2016-yildan boshlab “Equalization Levy” nomli maxsus soliqni joriy qildi. Unga ko’ra, xorijiy raqamli kompaniyalar (masalan, Google, Facebook) Hindiston fuqarolariga xizmat ko’rsatishdan olgan foydalaridan 6 % miqdorda soliq to’laydi.

Fransiya. 2019-yilda “Digital Services tax (DST)”,ni tatbiq etib, yirik raqamli platformalar foydasining 3 %ni soliq sifatida undirishni yo’lga qo’ydi.

Qozog’iston. 2022-yildan boshlab chet eldagi internet platformalar (Netfliz, Apple, Google play)dan 12% QQS undirishni boshladi.

O’zbekiston uchun ushbu tajribalar muhim. Chunki raqamli daromadlarni bir qismi xalqaro tranzaksiyalar orqali shakllanadi. Shu sababli O’zbekiston ham xorijiy platformalar bilan axborot almashinuvini yo’lga qo’yishi, raqamli soliq deklaratsiyasini joriy etish lozim.

Soliq siyosatini raqamlashtirishni ijobiy natijalari.

Raqamlashtirish soliq tizimining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Raqamli boshqaruv tiimining joriy etilishi orqali davlat byujeti daromadlari 2024-yilda 18 foizga ko’paygani davlat soliq qo’mitasida hisobotlarida qayd etilgan. O’zbekiston Respublikasi davlat soliq qo’mitasi so’ngi yillarda quydagi elektron tizimlarni joriy etdi:

- **E-Soliq** – elektron hisob-faktura va hisobot topshirish tizimi;

- **My.soliq.uz** – soliq to'lovchilar uchun onlayn kabinet;
- **Mobil ilova** – soliq to'lovlarini tezkor amalga oshirish imkonini beruvchi dastur.

Bu tizimlar yordamida:

- * “Yagona raqamli soliq rejimi” ni joriy etish;
- * Soliq kodeksida raqamli faoliyatga oid yangi subyekt va moddalar kiritish;
- * Soliq kodeksini raqamli iqtisodiyotga moslashtirish va soddalashtirilgan elektron deklaratsiya joriy etish;

Soliq organlari imkoniyatlarini kengaytirib, yashirin iqtisodiyotni qisqartirib, soliq to'lovchilar soni oshirishda yordam beradi.

Xulosa. Raqamli iqtisodiyot soliq tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'ymoqda. Soliqqa tortishning an'anaviy usullari ensi raqamli faoliyatning turli shakllarini to'liq qamrab oladi. Shu sababli Soliq kodeksini zamonaviylashtirish, unda raqamli faoliyat subyektlarining maqomini belgilash, elektron nazorat tizimini keng joriy etish hamda xalqaro hamkorlikni rivojlantirish zarur. Shuningdek, aholining soliq madaniyatini oshirish, raqamli faoliyat bilan shug'ullanuvchi shaxslarni ixtiyoriy ravishda ro'yhatdan o'tishga rag'batlantirish soliq intizomini mustahkamlaydi. Natijada, raqamli iqtisodiyotdan tushadigan daromadlar qonuniy soliqqa tortilib, davlat byujeti barqaror daromad manbaiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. K.Kelly.- New York :Viking 1998.
2. O'zbekiston Respublikasini Prezidenti Shavkat Mirziyoevning “raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi farmoni.
3. Islom Karimov asarlari to'plami 10-jild, 1998yil.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining “Raqamli O'zbekiston-2030” strategiyasi to'g'risidagi PQ-4699-son qarori,2020-yil 30-aprel.
5. Soliq.uz – davlat soliq qo'mitasini rasmiy ma'lumotlari.
6. OECD. TaxChallenges arising from digitalization-2023Report .Paris,2023.
7. N.Jo'rayev, “Raqamli iqtisodiyotda soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish masalalari”, Iqtisodiyot va innovatsiyalar jurnali,2024.
8. <https://uz Wikipedia.org>